

PLITONIT

PROFESSIONAL BO'LIH OSON



PLITONIT P2 – pol uchun o'z-o'zidan zichlanadigan dispersli quruq aralashma GOST 31358-2019 ga mos keladi



Mahsulot uy-joy va idora binolari ichidagi beton pollar va monolit sement styajkalarini polga keramik plitkalar, to'shama qoplamalar va parketlar yotqizish uchun tekislash va sozlash, shuningdek, "issiq pol" tizimida foydalanish uchun mo'ljallangan. Tekislashda tavsiya etiladigan qatlam qalinligi — 2-20 mm, chuqurchalarda — 30 mm gacha. Foydalanish jarayonida qoplama harorati — -5 °C dan +70 °C gacha

Pol qoplamisiz bo'yash va ishlatishga ruxsat etilmaydi.

Qadoqlash — 25 kg.

- Yuqori tarqalish qobiliyati
- Qo'lda va mashinada surtish uchun tavsiya etilgan
- Issiq polning qizdirish elementlari bo'lgan styajkalari ustidan yakuniy tekislash uchun
- Yuqori yoriqqa bardoshlik

Material sarfi

Qatlam qalinligi 1 mm bo'lganda 1,7-1,9 kg/m².

Ish olib borish sharoitlari

Eritma aralashmasidan faqat yopiq xonalarda foydalanish kerak. Ishlarni olib borishda va keyingi 3 kun davomida havo haroratini +10°C dan +30°C gacha oraliqda ushlab turishni ta'minlash kerak. Ishlarni bajarish jarayonida eritma aralashmasining harorati +10°C dan +30°C gacha. Ish vaqtida havoning nisbiy namligi — 60% dan kam bo'lmasligi kerak. Dastlabki 3 kun davomida sirtini to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan, shamoldan saqlash kerak.

Tayyorgarlik ishlari

Agar asosda 20 mm dan ortiq balandlik farqi, 30 mm dan ortiq chuqurchalar yoki ikki tomoni ochiq teshiklar bo'lsa, yuzani oldindan dag'al PLITONIT P1 PRO tekislagichi yordamida tekislash kerak. Asos pishiq (B15 beton markasi yoki undan yuqori, siqilishga mustahkamligi 20 MPa dan kam bo'lmagan sementli styajka), konstruktiv-tushiruvchi va yelvizak yoriqlari bo'lmagan bo'lishi kerak. Asos yuzasini chang, ifloslik, ohak, moy, yog', bitum, organik va mineral yelim va bo'yoq qoldiqlari, shuningdek suvda eriydigan moddalardan yaxshilab tozalash kerak. Asosni changdan uzil-kesil tozalash changyutkich bilan amalga oshiriladi. Polning tekislovchi qatlamini devor va to'siqlardan 1,5-2 sm masofada yupqa polistiroil ko'piklari yoki polietilen plyonkadagi yog'och reyklar bilan oldindan izolyatsiya qilish shart. Talab qilinadigan nivelirlash darajasini aniqlash uchun mayoq yoki reperlarni qo'yish kerak. Tekislanadigan yuzani PLITONIT Grunt SuperPol gruntovkasi bilan ishlov berish kerak. PLITONITning boshqa praymerlari yoki quruq qoldig'i 8% dan kam bo'lmagan tayyor gruntovkalardan foydalanish mumkin.

Gruntovka cho'tka, mo'yqalam yoki valik bilan surkaladi. Grunt yupqa yaxlit qatlam hosil qilishi kerak, ko'lmaklar hosil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Suv shimuvchanligi yuqori bo'lgan yuzalarga gruntovka bilan ikki marta ishlov beriladi. Gruntlangan yuzaning sifati 20-30 daqiqa davomida suvning shimilmasligi bilan belgilanadi. Silliq, zich yuzalar (monolit beton, yopma plitalar va boshqalar) PLITONIT Grunt BetonKontakt praymeri bilan ishlov berilishi kerak.

Ohak aralashmasini tayyorlash

Quruq aralashmani aralashtirish uchun ichimlik suvidan foydalaning. Aralashtirishdagi nisbat: 1 kg quruq aralashmaga 0,19-0,22 l suv (xalta uchun 4,75-5,5 l) kerak bo'ladi. Quruq aralashmani xona haroratida oldindan o'lchangan suvga quyning va elektr mikser yoki nasadkali elektrodrel yordamida bir xil konsistensiya olinmaguncha 3 daqiqa davomida aralashtiring (aylanish tezligi 600 aylana/min. dan oshmaydi). Tekislagich, shuningdek, uzluksiz dozalangan suv bilan ta'minlangan aralashtirish-haydash apparatlari yordamida ham tayyorlanishi mumkin. Tayyor eritma aralashmasidan foydalanish vaqti 20 daqiqa, eritma aralashmasi harorati 20 ± 2 °C.

Ishlash tartibi

Ish boshlashdan oldin ikkita idish, quruq aralashmaning sarf miqdori, ochilgan va qatorga qo'yilgan paketlar, suv, suv o'lchagich tayyor bo'lishi kerak. Ishni chiqish joyidan eng uzoqdagi devordan boshlash tavsiya etiladi. Tekislagichning massasi taxminan 50 sm kenglikdagi devorga parallel yo'llar bilan quyiladi. Ikki porsiya orasidagi ulanish vaqti 10-15 minutdan oshmasligi kerak. Tekislovchi massaning yuza bo'ylab yaxshiroq taqsimlanishi uchun keng shpatel yoki ignasimon valikdan foydalanish kerak. Ishni bajarish maksimal tezlikni kuzatib, uzilishsiz amalga oshirilishi kerak. Agar tekislagich asosdan ajralmagan holda kam uchraydigan mikroyoriqlar hosil bo'lsa, polning funksional yaroqliligi pasaymaydi.

Diqqat

Ishni kamida ikki kishidan iborat brigada bilan bajarish tavsiya etiladi. Suvning dozasini oshirib yuborishga yo'l qo'yilmaydi. Tekislangan yuza bo'ylab yurishga taxlangandan keyin kamida 3 soatdan keyin ruxsat etiladi. Mustahkamlik xususiyatlarini yaxshilash uchun 24 soat qotgandan so'ng polni suv bilan namlash yoki polietilen plyonka bilan qoplash tavsiya etiladi. Agar xona kengligi 5 m dan ohsa, uni kengaytirish choklari bilan qismlarga bo'lish kerak. Keramik plitkalarini 12 soatdan keyin yotqizish mumkin, gilam qoplamalari va linoleum, plastik qoplamalar va parketlarni taxminan 3 kundan keyin yotqizish mumkin, asos namligini pol qoplamalari ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasi bilan taqqoslang. Ko'rsatilgan xarakteristikalar atrof-muhit harorati 20 ± 2 °C, havoning nisbiy namligi 60+10% bo'lganda haqiqiy hisoblanadi.

Ehtiyot choralari

Aralash GOST 12.1.007 bo'yicha 4-xavfli sinfga (past xavfli moddalar) tegishli. Ishni bajarayotganda qo'lqop, himoya ko'zoynagi va respirator himoya vositalaridan foydalaning. Aralashmaning teriga va ko'zlarga tegishidan saqlaning. Ko'z bilan aloqa qilganda, darhol ko'p miqdorda suv bilan yuvib tashlang. **BOLALARDAN UZOQ SAQLANG!**

Tashish va saqlash shartlari

Aralashmani yuklarni tashish qoidalariga muvofiq yopiq transport vositalarida tashish kerak. Ichida quruq aralashma bo'lgan xaltalar qadoqlash xavfsizligini va namlikdan himoya qilishni ta'minlaydigan yopiq, quruq xonalarda saqlanishi kerak. Ishlab chiqaruvchining tarasida saqlash muddati – ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oy.

Tarkibi

Qum, portlandsement, mineral to'ldiruvchi, modifikatsiyalovchi qo'shimchalar

Ishlab chiqaruvchi kafolati

Ishlab chiqaruvchi iste'molchi tomonidan tashish, saqlash shartlariga va ushbu yo'riqnomaning ko'rsatmalariga rioya qilgan holda aralashmaning GOST 31358 va TU 5745-103-515521552010 talablariga muvofiqligini kafolatlaydi. Ishlab chiqaruvchi material bilan ishlash texnologiyasiga rioya qilmagan taqdirda, shuningdek uni mazkur yo'riqnomada nazarda tutilmagan maqsadlarda va shartlarda qo'llaganlik uchun javobgar bo'lmaydi. GOST 8.579-2001 ga muvofiq netto massasidan og'ish. Mahsulotdan fuqarolik qurilishining barcha turlarida foydalanishga ruxsat etilgan ($A_{eff} < 370$ Bk/kg; Sanitariya qoidalari va normalari 2.6.1.25.23-09 "Radiatsiyaviy xavfsizlik me'yorlari (NRB 99/2009) " bo'yicha I sinf materiallar.

Texnik xarakteristikalar

Quruq holatdagi aralashma uchun	
Qatlam qalinligi 1 mm bo'lganda material sarfi	1,7-1,9 kg/m ²
To'ldirgich donalarining eng katta yirikligi	1,25 mm
Eng katta yiriklikdagi donlar miqdori	0%
Qotirish uchun suv sarfi: <ul style="list-style-type: none">• 1 kg ga• 25 kg xaltaga	0,19-0,22 l 4,75-5,5 l
Qo'llanishga tayyor aralashma uchun	
GOST 31358 bo'yicha harakatchanlik	240 mm dan kam bo'lmagan
Qo'llashga tayyor bo'lgan aralashmadan foydalanish vaqti	20 daqiqadan ko'p bo'lmagan
Qotib qolgan eritma uchun	
Normal sharoitlarda yoshda siqilishdagi mustahkamlik <ul style="list-style-type: none">• 1 sutka• 28 sutka	6 MPa dan kam bo'lmagan 20 MPa dan kam bo'lmagan
Asos bilan birikish mustahkamligi <ul style="list-style-type: none">• 7 sutka• 28 sutka	0,6 MPa dan kam bo'lmagan 1,0 MPa dan kam bo'lmagan
Kirishish deformatsiyasi	1 mm/m dan ko'p bo'lmagan
Kengayish deformatsiyasi	0,5 mm/m dan ko'p bo'lmagan
Foydalanish jarayonida qoplama harorati	+70°C gacha
Tabiiy radionuklidlarning solishtirma effektiv faolligi	370 Bk/kg dan ko'p bo'lmagan

Logistik ma'lumotlar

Individual shtrix-kod 4607013040458

Paletdagi xaltalar soni – 48 dona